Masalan: *Walk farther, please. Nick lives farther/further than us. New York is farther/further than Washington.*

➤ Izoh:

<i>further</i>	+ <i>noun</i>	-qo'shimcha
----------------	---------------	-------------

Masalan: *I need further information about this matter. He gave me further advice. What is the further news today? Are there any further questions? We have decided to take no further action. Cook gently for a further 10 minutes.*

➤ Qoida 11:

<i>the latest</i>	+ <i>noun</i>	-so'nggi
-------------------	---------------	----------

Masalan: *I need the latest information about it. I have read the latest books about technology. What is the latest news today?*

➤ Qoida 12:

“The latest” va “the last” ning farqi:

<i>the latest</i>	+ <i>noun</i>	-so 'nggi (lekin eng oxirgi emas)
<i>the last</i>		-oxirgi (bundan so 'nggisi yo 'q)

Masalan: *What is the latest news today? I didn't read the last chapter of the book.*

➤ Qoida 13:

Qiyosiy darajadagi sifatlar takror holatda quyidagicha ishlatilib, vaziyat o'zgarishlarini ifodalaydi:

<i>more and more</i> (borgan sari ko 'proq)	<i>fewer and fewer</i> (borgan sari kamroq)
<i>less and less</i> (borgan sari kamroq)	<i>better and better</i> (borgan sari yaxshiroq)
<i>worse and worse</i> (borgan sari yomonroq)	<i>more and more ...</i> (difficult, expensive, etc.) (borgan sari ko 'proq/...)
<i>harder and harder</i> (borgan sari qiyinroq)	<i>less and less...</i> (interesting, important, etc.) (borgan sari kamroq...)

Masalan: *The weather is getting colder and colder. My English is becoming better and better. More and more people are looking for jobs. The price of petrol is getting more and more expensive. As we watched the film many times, it was becoming less and less interesting.*

SUPERLATIVE DEGREE (ORTTIRMA DARAJA)

➤ Qoida 1:

Orttirma darajadagi sifatlar belgining eng ko'p ekanligini bildiruvchi sifatlardir. Ular quyidagi holatlarda ishlatiladi:

1. Gapda “of” bilan. Uch va undan ortiq otlar haqida gap ketganda sifatning orttirma darajasi ishlatiladi.

Masalan: *The Nile is the longest river of all the rivers. Of my three brothers, John is the oldest.*

➤ Izoh:

Agar “of” bilan kelgan gaplarda ikki shaxs yoki narsa-predmet haqida gapirilsa, bunda sifatning qiyosiy darajasi aniq artikl “the” bilan ishlatiladi.

Masalan: *Of my two brothers, John is the taller. Of the two students, Tom is the cleverer.*

2. Gapda “in” bilan;

Masalan: *The Baikal is the deepest lake in the world. Exercise ten is the most difficult exercise in the book. Bill Gates is the richest person in the USA. Who is the most famous person in Uzbekistan?*

3. Gapda “one of” bilan;

Masalan: *Tom is one of the cleverest people. One of the deepest lakes is the Baikal.*

4. Gapda “among” yoki “between” bilan;

Masalan: *Tom is the cleverest boy among his friends. This is the most important problem between us.*

5. Present Perfect zamonidagi aniqlovchi ergash gapli qo'shma gaplarda ishlatilib, bunda ko'pincha “it” soxta egasi bilan kelgan gaplar “that” nisbiy olmoshi bilan bog'lanadi. “That” nisbiy olmoshi tushirib qoldirilishi ham mumkin.

Masalan: *It is the most boring film (that) I have ever seen. Pizza is the most delicious meal (that) I have ever tasted. Leonardo is the most famous person (that) we have ever known. Catherine is the most beautiful girl (that) he has ever seen.*

➤ Qoida 2:

“Most” so'zi orttirma darajadagi sifatarni yasash bilan birga, oddiy darajadagi sifatlar oldidan ham kelib, “g'oyat”, “juda ham”, “nihoyatda” ma'nolarini berishi mumkin (“eng” ma'nosini emas). Bunda uning oldidan aniq artikl ishlatilmaydi.

Masalan: *This is a most interesting book. These are most comfortable houses. He is a most clever boy.*

➤ Qoida 3:

Quyidagi so'zlar orttirma darajadagi sifatlardan oldin qo'yilib, belgini kuchaytirishda ishlatilishi mumkin:

<i>(by) far</i> (ancha)	+ <i>Superlative degree</i>
<i>almost</i> (qariyb)	
<i>practically</i> (amalda)	
<i>nearly</i> (qariyb)	
<i>easily</i> (so 'zsiz)	

Masalan: *She is (by) far the oldest in the firm. This is almost the worst film I've seen in a long time. Samarkand is by far the most historical of all cities in Uzbekistan.*

COMPARISON OF ADJECTIVES
(SIFATLARNI QIYOSLASH)

➤ **Qoida 1:**

Ingliz tilida sifatlarni ikki xil qiyoslash darajasi mavjud:

1. Teng darajali qiyoslash

Ikkita bir xil sifatga ega bo'lgan o'tni o'zaro teng qiyoslash uchun "as ... as" strukturasiidan foydalaniladi. Bunda oddiy darajadagi sifat "as ... as" ning o'rtasiga qo'yiladi:

a)

as	+ Positive degree	+ as	-dek
----	-------------------	------	------

Masalan: *This room is as comfortable as that one. Catherine is as beautiful as Caroline.*

b)

as	+ Positive degree	a/an	+ singular noun	+ as	-dek
		-	+ uncountable/plural noun		

Masalan: *I saw as beautiful a house as this one. He bought as fast a car as mine. We have as wide roads as theirs. They had as short information as ours.*

c)

such	a/an	+ Positive degree	+ singular noun	+ as	-dek
	-		+ uncountable/plural noun		

Masalan: *I saw such a beautiful house as this one. He bought such a fast car as mine. We have such wide roads as theirs. They had such short information as ours. English is not such a difficult language as you think.*

2. Noteng darajali qiyoslash

not	as	+ Positive degree	+ as	-dek emas
	so			

Masalan: *This room is not as comfortable as that one. Caroline is not so beautiful as Catherine.*

➤ **Qoida 2:**

Ingliz tilida "...ikki marta...", "...uch marta..." kabi qiyoslashlarni ifodalashda quyidagi strukturadan foydalaniladi:

S ₁	+ V	twice	+ as	+ Positive degree	+ as	+ S ₂
		three times				
		four times				
		many times				
		several times				
		a few times				
		half				

Masalan: *My book is twice as interesting as that one. My house is many times as comfortable as my friend's. English classes are several times as difficult as biology classes. Tom is three times as tall as Nick.*

➤ **Izoh:**

1. Agar qiyoslanayotgan ikkinchi ot bo'lmasa, ikkinchi "as" ham bo'lmaydi.

Masalan: *Nick is tall. Tom is twice as tall. The first room is comfortable. The second one is many times as comfortable. Biology classes are interesting. English classes are several times as interesting.*

2. Yuqorida (2-qoidada) keltirilgan strukturaning "half" so'zi bilan ishlatilish holatlari:

Masalan: *I paid for the book half as much as for the dictionary (Men bu kitob uchun lug'atga qaraganda ikki marta kam pul to'ladim). I have half as many English books as French (Menda inglizcha kitoblar fransuzcha kitoblarimga qaraganda ikki marta kam). He is half my age (Uning yoshi mening yoshimning yarmiga teng). My trunk is half the weight of yours (Mening jomadonimning og'irligi siznikining yarmiga teng).*

➤ **Qoida 3:**

Ingliz tilida "qanchalik..., shunchalik..." tarzidagi qiyoslashlar quyidagi struktura asosida ifodalanadi:

The	+ Comparative degree	+ S ₁ + V,	+ the	+ Comparative degree	+ S ₂ + V.
qanchalik...,			shunchalik...		

Masalan: *The hotter the weather is, the happier I feel (Havo qanchalik issiq bo'lsa, shunchalik o'zimni baxtiyor his qilaman). The more modern the car is, the more expensive it is (Mashina qanchalik zamonaviy bo'lsa, u shunchalik qimmat bo'ladi). The more the fire is, the better the water boils (Olov qanchalik kuchli bo'lsa, suv shunchalik yaxshi qaynaydi). The earlier you get up, the better you feel (Qanchalik barvaqt tursangiz, shunchalik o'zingizni yaxshiroq his qilasiz).*

Hotel manager: Do you want a big room?

Ann: Yes, the bigger, the better.

Nick: But the smaller, the cheaper.

➤ Qoida 4:

Ikkita predmet yoki shaxsning bir xil sifatga ega ekanligini ifodalash uchun quyidagi o'tli strukturadan foydalanamiz:

+ the same	+ noun	+ as	...-dek bir xil
------------	--------	------	-----------------

Masalan: *This room has the same comfort as that one. Caroline has the same beauty as Catherine. My hair is the same colour as yours. I had the same difficulty as you had.*

➤ Izoh:

Yuqoridagi strukturada sifatlar o'rnida asosan ular o'rnini bosuvchi o'tlar ishlatiladi. Quyida sifatlar o'rnini bosuvchi o'tlar jadvali keltirilgan:

SIFATLAR	SIFAT O'RNINI BOSUVCHI OTLAR
<i>early, late</i>	<i>time (vaqt)</i>
<i>big, small, large, huge</i>	<i>size (o'lcham)</i>
<i>round, oval, square</i>	<i>shape (shakl)</i>
<i>red, black, white</i>	<i>colour (rang)</i>
<i>strong, weak</i>	<i>strength (kuch)</i>
<i>high, tall, short, low</i>	<i>height (balandlik)</i>
<i>long, short</i>	<i>length (uzunlik)</i>
<i>wide, narrow</i>	<i>width (kenglik)</i>
<i>deep, shallow</i>	<i>depth (chuqurlik)</i>
<i>heavy, light</i>	<i>weight (og'irlik)</i>
<i>young, new, old</i>	<i>age (yosh)</i>

Masalan: *This room is as big as that one (Bu xona narigi xonadek katta). This room has the same size as that one (Bu xona narigi xona bilan bir xil o'lchamga ega). This box is as heavy as that one (Bu quti narigisidek og'ir). This box has the same weight as that one (Bu quti narigi quti bilan bir xil og'irlikka ega). My car is as black as my friend's (Mening mashinam do'stimnikidek qora). My car has the same colour as my friend's (Mening mashinam do'stimniki bilan bir xil rangga ega).*

ADVERBIAL INTENSIFIERS OF THE ADJECTIVE
(SIFATLAR BELGISINI KUCHAYTIRUVCHI RAVISHLAR)

➤ Qoida 1:

Belgini kuchaytirib ko'rsatish uchun sifatlar oldidan "so" ravishi qo'llaniladi.

1.

so +	Positive degree	- juda
------	-----------------	--------

Masalan: *She is so beautiful. They are so clever. It is so cold outdoors. I haven't seen my friend for so long (=such a long time). The distance from my home to the station isn't so far (=such a long way).*

2.

so +	Positive degree	+ that	S + V	- shunday ... ki
------	-----------------	--------	-------	------------------

Masalan: *She is so beautiful that I fell in love with her at first sight. They are so clever that they understand everything in a moment. It is so cold that I don't want to go out. I was so tired that I went straight to bed after work.*

➤ Izoh:

a)

so +	many much	+ noun	- juda	ko'p
	few little			kam

Masalan: *I have so many friends. There is so much furniture in the room. Bob had so few friends. There was so little sugar in my coffee. Why have you bought so much food (=such a lot of food)?*

b)

so +	many much	+ noun	+ that	-shunchalik	ko'p...ki	S + V
	few little				kam...ki	

Masalan: *I have so many friends that I enjoy my life. There is so much furniture that it looks nice.*

➤ Izoh:

so	+ Positive degree	+ a/an	+ noun	- juda, -nihoyatda
too				

Masalan: *She is so beautiful a girl. It is so nice a table. It is too urgent a matter to postpone.*

➤ Qoida 2:

Baʼzida otning belgisini kuchaytirib koʻrsatish uchun “such”, “quite”, “rather” ravishlaridan foydalaniladi.

1.

such	+ a/an	+ Positive degree	+ singular noun	- juda, -ancha
quite				
rather				

Masalan: *She is such a beautiful girl. He is quite a young boy. It is rather a long story.*

2.

such	+ Positive degree	+ plural/uncountable noun	- juda, -ancha
quite			
rather			

Masalan: *They are such clever people. It is quite beneficial news. They are rather lazy boys.*

➤ Izoh:

a)

such	+ a/an	+ Positive degree	+ singular noun	+ that	S + V	-shunchalik ... ki
------	--------	-------------------	-----------------	--------	-------	--------------------

Masalan: *She is such a beautiful girl that I fell in love with her at first sight. It is such an interesting book that you never leave it without reading.*

b)

such	+ Positive degree	+ plural/uncountable noun	+ that	S + V	-shunchalik ... ki
------	-------------------	---------------------------	--------	-------	--------------------

Masalan: *They are such clever people that they understand everything in a moment. It is such cold weather outdoors that I do not want to go out.*

➤ Izoh:

Hayratni ifodalash

such	+ a/an	+ singular noun	-shunday...!, -shunaqangi...!
	-	+ plural/uncountable noun	

Masalan: *She is such a girl. They are such people. It is such weather.*

“-ING” AND “-ED” ADJECTIVES
 (“-ING” VA “-ED” SIFATLAR)

➤ Qoida 1:

Bu turdagi sifatlar juft sifatlar boʻlib, ular koʻp boʻgʻinli sifatlar sirasiga kiradi. Ularning ikki xil koʻrinishi mavjud:

-ing	-ed
“-li”, “-(u)vchi”, “-ayotgan” maʼnosini berib, asosan predmetning qandayligini ifodalash uchun ishlatiladi	“-gan”, “-kan”, “-qan” maʼnosini berib, asosan kishining qandayligini ifodalash uchun ishlatiladi
<i>interesting</i> (qiziqarli)	<i>interested</i> (qiziqqan)
<i>boring</i> (zerikarli)	<i>bored</i> (zerikkan)
<i>tiring</i> (charchatuvchi)	<i>tired</i> (charchagan)
<i>satisfying</i> (qoniqtiruvchi)	<i>satisfied</i> (qoniqqan)
<i>disgusting</i> (nafrat uygʻotuvchi)	<i>disgusted</i> (nafratlangan)
<i>amazing</i> (ajablantiruvchi)	<i>amazed</i> (ajablangan)
<i>surprising</i> (hayratlanarli)	<i>surprised</i> (hayratlangan)
<i>disappointing</i> (koʻngilni qoldiradigan)	<i>disappointed</i> (koʻngli qolgan)
<i>fascinating</i> (maftun qiladigan)	<i>fascinated</i> (maftun boʻlgan)
<i>exciting</i> (hayajonlantiradigan)	<i>excited</i> (hayajonlangan)
<i>shocking</i> (lol qoldiradigan)	<i>shocked</i> (lol qolgan)
<i>embarrassing</i> (uyaltiradigan)	<i>embarrassed</i> (uyalgan)
<i>confusing</i> (chalgʻituvchi)	<i>confused</i> (chalgʻigan)
<i>frightening</i> (qoʻrqinchli)	<i>frightened</i> (qoʻrqqan)
<i>depressing</i> (tushkunlikka tushiradigan)	<i>depressed</i> (tushkunlikka tushgan)
<i>worrying</i> (xavotirli)	<i>worried</i> (xavotirlangan)
<i>annoying</i> (asabga tegadigan)	<i>annoyed</i> (asabiylashgan)
...	...

Masalan: *Jane’s job is boring. Jane is bored with her job. Politics is interesting. He is interested in politics. The exercise is confusing. I am confused by the exercise. The work was tiring. I was tired of the work.*

➤ Qoida 2:

1. Predmetlardan tashqari kishilar ham “-ing” sifatdoshlari bilan ishlatilishi mumkin.

sb	+ to be	+ ... -ing
----	---------	------------

Masalan: *He is an interesting person. She is a boring woman. They are annoying people. She is a fascinating girl.*

2. Shuningdek, kishilardan tashqari narsa-predmetlar ham “ed” sifatdoshlari bilan ishlatilishi mumkin.

Masalan: *a boiled egg, a cleaned room, chopped meat, etc.*

ORDER OF ADJECTIVES
(SIFATLARNING GAPDAGI TARTIBI)

➤ Qoida 1:

Sifatlar aniqlovchi vazifasida doim otdan oldin, kesim vazifasida esa bog‘lovchi-fe‘ldan keyin ishlatiladi.

Masalan: *a nice day, a beautiful girl, cold weather, clever people, etc. That girl is beautiful. They are clever. My uncle is kind.*

➤ Qoida 2:

Agar otdan oldin bir necha sifatlar qo‘yilishi kerak bo‘lsa, ularni xohlagan tartibda joylashtira olmaymiz. Ular uchun quyidagicha alohida qat‘iy tartib mavjud:

Fikr	Hajm	Harorat	Yosh	Shakl	Rang	Millat	Din	Material	Tur	Maqsad (-ing)	Ot
<i>nice</i>	<i>wide</i>	<i>warm</i>	<i>old</i>		<i>red</i>	<i>French</i>	<i>Christian</i>	<i>cotton</i>	<i>two-sided</i>	<i>evening</i>	<i>dress</i>
<i>beautiful</i>	<i>large</i>		<i>new</i>	<i>round</i>	<i>brown</i>	<i>Italian</i>	<i>Catholic</i>	<i>wooden</i>	<i>heavy</i>	<i>writing</i>	<i>table</i>
...

Masalan: *A charming big hot old square white Chinese plastic measuring spoon, etc.*

➤ Izoh:

1. Quyidagi sifatlar hech qachon bevosita otlar oldidan ishlatilmaydi:

<i>afraid (qo‘rqqan)</i>	<i>alike (o‘xshash)</i>	<i>alive (tirik)</i>	<i>alone (yolg‘iz)</i>	<i>ashamed (uyalgan)</i>
<i>content (mamnun)</i>	<i>glad (xursand)</i>	<i>ill (kasal)</i>	<i>asleep (uyquda)</i>	...

Masalan: *The girl was left alone. (The alone girl...)*

2. Quyidagi sifatlar faqatgina otlar oldidan ishlatiladi:

<i>chief (asosiy)</i>	<i>elder (katta)</i>	<i>eldest (eng katta)</i>	<i>indoor (ichkaridagi)</i>	<i>outer (tashqi)</i>	<i>principal (asosiy)</i>
<i>inner (ichki)</i>	<i>main (asosiy)</i>	<i>only (yagona)</i>	<i>outdoor (tashqaridagi)</i>	<i>former (oldingi)</i>	<i>upper (yuqori)</i>

Masalan: *This is the main entrance. (This entrance is main.)*

➤ Qoida 3:

Ba‘zi “-able”, “-ible” qo‘shimchalari bilan tugagan sifatlar otdan oldin ham, otdan keyin ham qo‘yilishi mumkin.

Masalan: *The goods were shipped by the first available steamer. The goods were shipped by the first steamer available.*

➤ Qoida 4:

Ot oldidan bir necha turdagi sifatlar ketma-ket kelsa, ular o‘rasida hech qanday bog‘lovchi yoki vergul qo‘yilmaydi.

Masalan: *She is wearing a long black dress. I bought a small black leather bag.*

➤ Izoh:

Agar bir turdagi bir necha sifatlar aniqlovchi vazifasida yoki ot-kesim tarkibida kelsa, bog‘lovchi yoki vergul qo‘yiladi.

Masalan: *I bought a black and white carpet. The colour of our flag is blue, white and green.*

➤ Qoida 5:

Quyidagi 16 ta fe‘ldan keyin har doim sifat ishlatiladi:

<i>be (bo‘lmoq)</i>	<i>get (bo‘lmoq)</i>	<i>keep (saqlamoq)</i>	<i>taste (ta‘m bermoq)</i>	<i>feel (his qilmoq)</i>	<i>stay (qolmoq)</i>
<i>become (bo‘lmoq)</i>	<i>grow (bo‘lmoq)</i>	<i>make (qilmoq)</i>	<i>turn (bo‘lmoq)</i>	<i>appear (ko‘rinmoq)</i>	
<i>seem (tuyulmoq)</i>	<i>look (ko‘rinmoq)</i>	<i>smell (hid taratmoq)</i>	<i>remain (qolmoq)</i>	<i>sound (eshitilmoq)</i>	

Masalan: *Tom felt cold. I made her happy. Ann seemed calm. He is brave. They become serious. He stayed alert.*

➤ Izoh:

Yuqoridagi 16 ta fe‘lning ba‘zilari bilan ma‘nosiga ko‘ra goh sifat, goh ravish ishlatilishi mumkin.

1. Appear

a)

<i>appear</i>	+ adjective	-ko‘rinmoq, tuyulmoq
---------------	-------------	----------------------

Masalan: *She appeared calm.*

b)

<i>appear</i>	+ adverb	-paydo bo‘lmoq
---------------	----------	----------------

Masalan: *He appeared suddenly. The children appeared unexpectedly.*

2. Grow

a)

grow	+ adjective	-bo'lmoq, boshqa holatga o'tmoq
------	-------------	---------------------------------

Masalan: *It grew dark. The sound was growing louder.*

b)

grow	+ adverb	-o'smoq
------	----------	---------

Masalan: *The tree is growing quickly. The economy has grown steadily.*

3. Look

a)

look	+ adjective	-ko'rinmoq, tuyulmoq
------	-------------	----------------------

Masalan: *They look serious. The girl looks beautiful.*

b)

look	at	+ adverb	-qaramoq
	for		-qidirmoq

Masalan: *She looked at me seriously. She looked round helplessly.*

4. Smell, taste, sound

a)

sb +	smell	+ adverb	-hidlamoq
	taste		-tatib ko'rmoq
	sound		-ovoz chiqarmoq

Masalan: *He smelt the flower carefully. Nick tasted the soup accurately. He sounded angrily. She smells the meal hungrily.*

b)

sth +	smell	+ adjective	-hid taratmoq
	taste		-ta'm bermoq
	sound		-ovoz bermoq

Masalan: *The flower smells nice. The soup tastes delicious. The music sounds beautiful.*

➤ Izoh:

Yuqoridagi 16 ta fe'ldan tashqari barcha fe'llar bilan ravish ishlatiladi.

Masalan: *He danced beautifully. He did the work accurately. She speaks English fluently. He talked with us lovely.*

5. Turn

a)

turn	+ adjective	-bo'lmoq, boshqa holatga o'tmoq
------	-------------	---------------------------------

Masalan: *She turned pale. It turned cold and started to rain. Rose's hair was already turning grey.*

b)

turn	+ adverb	-qayrilmoq
------	----------	------------

Masalan: *He turned angrily to me. Tom's dog turned his head slowly.*

➤ Qoida 6:

"Be born" (tug'ilmoq) birikmasidan keyin ravish ishlatilmaydi. Aksariyat holatlarda sifat ishlatiladi.

Masalan: *He was born deaf. People are born Muslim. The twins were born talented.*

➤ Qoida 7:

"Go" fe'li bilan ham ba'zida sifat ishlatilishi mumkin. Bunda "go" fe'li "bo'lmoq" ma'nosini anglatib keladi.

Masalan: *After the accident he had last year, he went blind. Her hair is starting to go grey. He went crazy and tried to kill her.*

➤ Qoida 8:

"Lonely" va "alone" so'zlarining ishlatilishdagi farqi:

1. "Lonely" (yolg'iz) sifat bo'lib, ot oldidan aniqlovchi vazifasida keladi.

lonely	+ noun
--------	--------

Masalan: *Without her friends, it was a long and lonely journey.*

2. Yuqoridagi 16 ta fe'ldan keyin "lonely" ishlatiladi. Boshqa fe'llar bilan "lonely" ishlatilmaydi.

16 ta fe'l	+ lonely
------------	----------

Masalan: *She says she feels very lonely and depressed living in that big house.*

3. "Alone" (yolg'iz) so'zi "to be" fe'li bilan sifat, boshqa fe'llar bilan ravish bo'lib keladi. "Alone" hech qachon ot oldidan kelmaydi.

Masalan: *She was alone when she heard the sad news. (sifat)*

Did they travel alone or did they take the children with them? (ravish)

➤ Qoida 9:

"Imkon qadar...roq" ko'rinishidagi struktura ingliz tilida "as...as possible" ko'rinishida beriladi. Bu holatda sifatning oddiy darajasi "as ... as possible" ning o'rtasiga qo'yiladi.

Masalan: *The letter must be as short as possible.*

➤ Qoida 10:

1. Ingliz tilida ko'pgina otlar sifat vazifasida ishlatilib, boshqa otlarning oldidan kelishi mumkin.

Masalan: *a wool coat, a gold watch, a history teacher, etc.*

Ushbu misollarda birinchi ot sifatarga o'xshab orqasidan kelayotgan otni tasvirlab kelyapti.

2. Sifat vazifasida kelgan otlar har doim birlikda ishlatiladi va uning oldidan kelgan son orasida chiziqcha qo'yiladi.

Masalan: *We took a five-week tour. He has a two-year subscription to that magazine. That student wrote a ten-page report.*

➤ Qoida 11:

Ba'zi sifatlar o'zining oldidan "the" aniq artiklini olib otlashib keladi va kishilar guruhini ifodalaydi. Ular har doim ko'plik sonda ishlatiladi, lekin ko'plik qo'shimchasi "-s" qo'shilmaydi.

Masalan: *There are special schools for the blind in our country. Immediate help was rendered to the sick.*

➤ Izoh:

"Man", "men", "woman", "women", "person", "persons" kabi otlar sifatlar bilan ishlatilib, bir yoki bir nechta alohida shaxslarni ifodalaydi.

Masalan: *a blind man, two blind women, three blind persons, etc.*

➤ Qoida 12:

Millatni ifodalovchi so'zlar shu millatga mansub kishilarni bildirganda otga aylanadi.

a) "-an", "-ian" qo'shimchasi bilan tugagan millatni bildiruvchi so'zlar otlashib birlik va ko'plikda ishlatiladi. Ko'plikda "-s" qo'shimchasini oladi. Agar ko'plik holatida oldidan "the" aniq artikli bilan ishlatilsa butun millatni ifodalaydi.

Masalan: *an American-two Americans-the Americans; a Russian-two Russians-the Russians, etc.*

b) "ese", "ss" harf birikmalari bilan tugagan millatni bildiruvchi so'zlar otlashganda birlik va ko'plikda ishlatiladi, lekin ko'plikda "-s" qo'shimchasini olmaydi.

Masalan: *a Chinese-two Chinese-the Chinese; a Japanese-two Japanese-the Japanese; a Swiss-two Swiss-the Swiss, etc.*

c) "sh", "ch" harflari bilan tugagan millatni bildiruvchi so'zlar otlashganda aniq artikl bilan ishlatiladi va butun millatni ifodalab keladi.

Masalan: *the French, the English, the Scotch, the Dutch, the Spanish, etc.*

➤ Izoh:

Gap millat haqida ketmasdan, alohida shaxs yoki shaxslar haqida ketganda yuqoridagi sifatlariga "man", "woman", "men", "women" so'zlari qo'shiladi.

Masalan: *a Frenchwoman-two Frenchwomen, an Englishman-two Englishmen, a Scotchman-two Scotchmen, etc.*

➤ Istisno:

a Spaniard-two Spaniards-the Spanish

ADJECTIVE SUFFIXES (SIFAT YASOVCHI SUFFIKSLAR)

SUFFIKS	MISOL	SUFFIKS	MISOL
-able	<i>drinkable, portable, etc.</i>	-ian	<i>Canadian, Malaysian, Peruvian, etc.</i>
-al	<i>brutal, formal, postal, etc.</i>	-ible	<i>eligible, visible, etc.</i>
-ant	<i>constant, reliant, significant, etc.</i>	-ic	<i>basic, sympathetic, etc.</i>
-ary	<i>primary, secondary, etc.</i>	-ing	<i>boring, frightening, etc.</i>
-ed	<i>bored, coordinated, tired, etc.</i>	-ish	<i>British, childish, Spanish, etc.</i>
-ese	<i>Chinese, Japanese, Vietnamese, etc.</i>	-ive	<i>active, passive, productive, etc.</i>
-ent	<i>efficient, persistent, etc.</i>	-less	<i>homeless, hopeless, useless, etc.</i>
-ful	<i>forgetful, careful, useful, etc.</i>	-ly	<i>daily, monthly, yearly, etc.</i>
-i	<i>Iraqi, Pakistani, Yemeni, etc.</i>	-ous	<i>cautious, famous, nervous, etc.</i>
-like	<i>childlike, lifelike, ladylike, birdlike, etc.</i>	-y	<i>cloudy, rainy, windy, etc.</i>

ADVERB (RAVISH)

➤ Qoida 1:

Qachon?, qayerda?, qay holda?, qay tarzda?, qancha miqdorda? kabi soʻroqlariga javob boʻlib, ish-harakat va holatning payti, holati, tarzi, oʻrni hamda miqdorini bildiruvchi soʻzlarga *ravish* deyiladi. Ravishlar gapda hol vazifasida keladi. Masalan: *I often go to the cinema. He is working outside. She writes beautifully. He learns a lot.*

➤ Qoida 2:

Ingliz tilida ravishlar asosan quyidagi turlarga boʻlinadi:

1. Adverbs of place (Oʻrin-joy ravishlari)	3. Adverbs of quantity (Daraja-miqdor ravishlari)
2. Adverbs of frequency (Payt ravishlari)	4. Adverbs of manner (Harakat tarzi ravishlari)

➤ Qoida 3:

Ravishlar sifat yoki boshqa ravishlarning belgi va xossalarini ham ifodalashi mumkin.

Masalan: *She is a very good student. You speak English quite well.*

ADVERBS OF PLACE (OʻRIN-JOY RAVISHLARI)

➤ Qoida 1:

Harakat va holatning bajarilish yoki sodir boʻlish oʻrmini ifodalovchi *“here”* (bu yerda), *“there”* (u yerda), *“inside”* (ichkarida), *“outside”* (tashqarida), *“indoors”* (ichkarida), *“outdoors”* (tasharida), *“nearby”* (yaqinida), *“above”* (tepasida), *“below”* (pastida), *“somewhere”* (qayergadir, qayerdadir, bir yerga), *“anywhere”* (istalgan yerga, hech qayerga), *“nowhere”* (hech qayerga), *“elsewhere”* (boshqa bir joyga) kabi ravishlarga *oʻrin-joy ravishlari* deyiladi.

Masalan: *Is there a phone box nearby? You can wait for me outside.*

ADVERBS OF FREQUENCY (PAYT RAVISHLARI)

➤ Qoida 1:

Harakatning bajarilish paytini ifodalovchi *“always”* (har doim), *“usually”* (odatda), *“seldom”* (kamdan-kam), *“often”* (tez-tez), *“today”* (bugun), *“already”* (allaqachon), *“now”* (hozir), *“when”* (qachon), *“then”* (keyin, oʻshanda), *“yesterday”* (kecha), *“tomorrow”* (ertaga), *“before”* (oldin), *“lately”* (soʻnggi paytlarda), *“recently”* (yainda), *“once”* (bir paytlar), *“ever”* (qachonlardir, biror marta), *“never”* (hech qachon), *“yet”* (hali ham), *“sometimes”* (baʼzan), *“still”* (hanuz), *“since”* (-dan beri), *“rarely”* (kamdan-kam) va shu kabi boshqa ravishlarga *payt ravishlari* deyiladi.

Masalan: *I saw a friend of mine yesterday. He often eats out with his friends. They have recently started the game.*

➤ Qoida 2:

“Never” ravishi oʻzi inkor maʼnosiga ega boʻlib, oʻzi qatnashgan gaplarni inkor gapga aylantiradi. Lekin bunday gaplar tarkibida *“not”* inkor yuklamasi boʻlmaydi. Ingliz tilida bitta gap tarkibida faqat bitta inkor ishlatiladi.

Masalan: *She never tidies her own room. He never repairs his car when it breaks down. I have never seen her before.*

➤ Qoida 3:

1. *“Yet”* -haligacha, hali ham (asosan soʻroq va inkor gaplarda ishlatilib, boʻlishsizlik maʼnosini beradi)

Masalan: *Is dinner ready yet? I'm starving. They have not repaired their car yet? We are going to be late.*

2. Shuningdek *“yet”* ravishi *“don't/doesn't”, “haven't/hasn't”, “m not/isn't/aren't”* kabi inkor maʼnoli yordamchi feʼllardan keyin yoki *“whether”, “why”* kabi olmoshlardan oldin kelishi ham mumkin.

Masalan: *We do not yet have the solution to the problem. I haven't decided yet whether to submit the documents.*

3. *“Yet”* inkor gaplarda hozircha qilish kerak emas boʻlgan ish-harakatni ifodalashda ham ishlatiladi.

Masalan: *You can't give up yet! Don't go yet. I like talking to you.*

4. *“Yet”* ravishi qiyosiy sifatlar yoki ravishlar bilan kelganda *“yanada...roq”* maʼnosini bildiradi.

Masalan: *Inflation had risen to a yet higher level. He got a call from the factory, telling of yet more problems.*

5. *“Yet”* ravishi *“again”* soʻzi bilan kelganda *“yana bitta”, “yana bir marta”* maʼnolarida ham ishlatilishi mumkin.

Masalan: *The meeting has been cancelled yet again.*

6. *“Yet”* orttirma daraja sifatleri bilan ham ishlatilib, *“shu vaqtgacha boʻlgan eng...”* maʼnosini ifodalab kelishi mumkin.

Masalan: *This could turn out to be our biggest mistake yet.*

7. *“As (of) yet”* -hanuzgacha

Masalan: *We have had no luck as yet. We'll go camping on an as yet undecided date.*

8. "Months/weeks/ages yet" birikmalari bir ish-harakat sodir bo'lguncha qancha muddat borligini ifodalashda ishlatiladi. Masalan: A: "When is your holiday?" B: "Oh, not for ages yet." It could be months yet before they know their fate.

9. "Could/may/might yet do something" birikmalari hali biror ish-harakatni bajarish imkoniyati mavjudligini ifodalaydi. Masalan: We may yet win. The plan could yet succeed.

10. "Somebody/something have yet to do something" birikmasi haligacha bajarilmagan harakatni ifodalashda ishlatiladi. Masalan: I have yet to hear Ray's version of what happened. The bank has yet to respond to our letter.

11. "Yet" zidlov bog'lovchisi vazifasini ham bajarib kelishi mumkin.

Masalan: John was a convicted criminal, yet many people admired him. She does not speak our language and yet she seems to understand what we say.

➤ Qoida 4:

1. "Still" ravishi hozirgacha o'zgarimasdan yoki to'xtamasdan davom etib kelayotgan ish-harakatlarni ifodalashda ishlatiladi.

Masalan: It is 10 o'clock and Joe is still in bed. Do you still want to go away or have you changed your mind?

2. "Still" ravishi odatda "to be" fe'ldan va yordamchi fe'llardan keyin, boshqa barcha fe'llardan oldin keladi.

Masalan: I can still remember them. It was still dark outside. The system still works. They still work on the same project.

3. "Still" ravishi odatda barcha bo'lishsiz so'zlardan oldin keladi.

Masalan: She still isn't ready. They still can't decide. I'm still not tired. We still do not know what happened.

4. "Still" ravishi "now" so'zi bilan birikib ishlatilmaydi.

Masalan: Inflation is still (still now) a problem.

5. "Still" ravishi hozirgina aytilgan bir gapni ikkinchi bir gap bilan mantiqiy bog'lab, "shunday bo'lsa hamki", "baribir" ma'nolarini ifodalab keladi.

Masalan: Clare didn't do much work, but she still passed the exam. The hotel was terrible. Still, we were lucky with the weather.

6. "Still more", "still further", "still another" "still other" birikmalari biror miqdorning ortayotganligini yanada ta'kidlab ko'rsatish uchun ishlatiladi.

Masalan: Kevin grew still more depressed. We could know about happenings still further.

7. "Still" qiyosiy darajadagi sifatlar oldidan yoki ketidan kelib belgini kuchaytirishda ham ishlatilishi mumkin.

Masalan: Dan found biology difficult, and physics harder still. Working is still harder than thinking.

8. "Still" so'zi gapda sifat bo'lib aniqlovchi vazifasida ham kelishi mumkin. Unda uning tarjimasi "qo'zg'almas", "jimjit", "sokin", "shamolsiz", "gazsiz" (suvga nisbatan) ma'nolarini anglatishi mumkin.

Masalan: Keep still while I tie your shoe. The house was completely still. It was a hot still day. Would you bring me some still mineral water, please?

➤ Qoida 5:

"Any more" va "any longer" ravishlari kesimi bo'lishsiz gaplar bilan ishlatilib gapning oxirida keladi va biror-bir ish-harakatning ortiq davom etmasligini bildiradi.

Masalan: Lucy doesn't work here any more/any longer. We used to be good friends, but we aren't any more/any longer.

➤ Izoh:

1. Xuddi shu ma'noda "no longer" ravishi ham ishlatilishi mumkin. Faqat u kesimi bo'lishli gaplarda ishlatilib gapning o'rtasida asosiy fe'ldan oldin va "to be" fe'ldan keyin keladi.

Masalan: Lucy no longer works here. We used to be good friends, but we are no longer friends.

2. Ba'zi test savollarining javoblarida har ikkala "any more" va "any longer" berilgan holat kuzatilishi mumkin. Bunday vaziyatda ular asl "any more" yoki "any longer" qotib qolgan strukturasi bilan farq qiladi va o'zidan keyin keladigan otga ma'no jihatdan bog'lanib kelib alohida "more" (ko'proq) yoki "longer" (uzoqroq) so'zlari asl ma'nosini saqlab, bo'lishsiz gaplar bo'lganligi sababli "any" bilan birikib keladi.

Masalan: I'll let you go to school on condition that you promise not to cause any more (any longer) problems there. As she was tired, she couldn't walk any longer (any more) distance.

ADVERBS OF QUANTITY (DARAJA-MIQDOR RAVISHLARI)

➤ Qoida 1:

Harakat, holat, belgi va narsa-buyumning darajasini, miqdorini bildirib keluvchi "much", "many", "few" "a few", "a lot of", "plenty of", "little", "a little", "a bit", "a little bit", "far", "so", "too", "very", "quite", "rather", "slightly", "fairly", "pretty", "absolutely", "completely", "extremely", "really", "totally" kabi ravishlarga daraja-miqdor ravishlari deyiladi.

Masalan: Lita looked rather upset. We go on holiday fairly soon. The animals suffer terribly.

➤ Qoida 2:

Daraja-miqdor ravishlari sifat va ravishlardan oldin ishlatilib, belgining darajasini ifodalab keladi. Ular uchga bo'linadi:
 1. Kuchsiz daraja: "a bit", "a little", "a little bit", "slightly" ravishlari sifat va boshqa ravishlar oldidan ishlatilib, "ozroq", "sal" ma'nolarini anglatadi.

Masalan: *Laura is a bit tired. This task seems slightly complicated.*

2. O'rta daraja: "fairly", "pretty", "rather", "quite" ravishlari sifat va boshqa ravishlar oldidan ishlatilib, "anchagina" ma'nosini anglatadi.

Masalan: *It is quite cold. Ann lives quite near me, so we see each other pretty often.*

3. Kuchli daraja: "much", "far", "so", "too", "very", "absolutely", "completely", "extremely", "really", "awfully", "terribly", "totally" ravishlari sifat va boshqa ravishlar oldidan ishlatilib, "juda", "nihoyatda", "o'ta" ma'nolarini beradi.

Masalan: *Engineers worked extremely hard on the project. These goods are too heavy to load.*

➤ Qoida 3:

1.

quite	+ a/an	-	+ singular noun
		+ adjective	

Masalan: *Sarah has quite a good job. I didn't expect to see them. It was quite a surprise.*

2.

quite	-	+ uncountable/plural noun
	+ adjective	

Masalan: *It was quite astonishing information. They made quite ridiculous mistakes. These are quite different matters.*

➤ Izoh:

"Pretty" ham "quite" o'rnida ishlatilishi mumkin. Faqat artikl joylashuvida farq bo'ladi.

a/an	pretty	+ adjective	+ noun
------	--------	-------------	--------

Masalan: *Sarah has a pretty good job. I didn't expect to see them. It was a pretty surprise.*

3.

quite	+ adverb
-------	----------

Masalan: *She answered quite cleverly. I got a letter from Sylvia quite recently. They could understand the topic quite easily.*

4.

quite	+ a lot	-
	+ a lot of	noun

Masalan: *They go out with their friends quite a lot. There were quite a lot of people at the meeting.*

➤ Qoida 4:

1. "Quite" quyidagi fe'llar bilan kelganda "completely" (mutlaq) ma'nosini beradi:

like (yoqtirmoq)	enjoy (rohatlanmoq)	understand (tushunmoq)	agree (fikrga qo'shilmoq)	finish (tugatmoq)
------------------	---------------------	------------------------	---------------------------	-------------------

Masalan: *I quite agree with you. I don't quite understand what you mean.*

2. "Quite" quyidagi sifatlar bilan kelganda ham "completely" (mutlaq) ma'nosini beradi:

sure (ishonchi komil)	horrible (qo'rqinchli)	certain (amin)	right (to'g'ri)
safe (xavfsiz)	perfect (mukammal)	clear (aniq)	obvious (ravshan)
incredible (aqlga sig'mas)	ridiculous (bema'ni, kulgili)	extraordinary (g'ayrioddiy)	amazing (hayratlanarli)
alone (yolg'iz)	hopeless (umidsiz)	awful (juda yomon)	brilliant (a'lo)
useless (befoyda)	absurd (bema'ni)	true (rost)	impossible (ilojsiz)
false (xato)	dreadful (dahshatli)	unnecessary (keraksiz)	dead (o'lik)
wrong (noto'g'ri)	different (farqli)	amazed (hayratngan)	...

Masalan: *She was quite different from what I expected. Everything they said was quite true.*

➤ Qoida 5:

"Rather" ravishi "quite" va "pretty" ravishlari bilan ma'no jihatdan o'xshash. Faqat "quite" va "pretty" ravishlaridan farqli o'laroq, "rather" ravishi salbiy tushunchani ifodalashda ishlatiladi.

Masalan: *She is quite clever but rather lazy. She answered quite cleverly. He answered rather badly.*

➤ Qoida 6:

Ba'zan "rather" ijobiy tushunchalarni ham ifodalab, "g'ayritabiiy ravishda", "hayratlanarli tarzda" ma'nolarini beradi.

Masalan: *We didn't have such nice fruit before. These oranges are rather good. Where did you get them?*

➤ Qoida 7:

“To’g’rirog’i”, “aniqrog’i” ma’nosida oldin aytilgan gapga qo’shimcha qilishda “or rather” yoki “more properly” birikmalari ishlatiladi.

Masalan: *We all went in Bob’s car, or rather/more properly his father’s.*

➤ Qoida 8:

“Much” ravishi “ko’p” ma’nosida asosan so’roq va inkor gaplarda ishlatiladi. Bo’lishli gaplarda esa odatda “much” ning o’rniga “a lot” ishlatiladi.

Masalan: *Has Tom changed much? He hasn’t changed much. But he has spent a lot on travelling.*

➤ Qoida 9:

“Much” ravishi darak gaplarda “very”, “rather”, “too”, “so”, “as”, “how” ravishlari bilan birgalikda kelishi mumkin.

Masalan: *He reads very much. He plays football too much. Thank you so much.*

➤ Qoida 10:

Quyidagi fe’llardan oldin “much” so’zi daraja-miqdor ravishi sifatida “juda ham”, “g’oyatda” ma’nolarida keladi:

<i>admire</i> (havas qilmoq)	<i>appreciate</i> (qadrlamoq)	<i>enjoy</i> (rohatlanmoq)	<i>prefer</i> (afzal ko’rmoq)	<i>regret</i> (afsus qilmoq)
------------------------------	-------------------------------	----------------------------	-------------------------------	------------------------------

Masalan: *I much enjoyed having you stay with us. Their music is much admired by millions of music fans.*

➤ Qoida 11:

“Very much” (“much” emas) ham quyidagi fe’llardan oldin “juda ham”, “g’oyatda” ma’nolarida keladi:

<i>agree</i> (fikrga qo’shilmoq)	<i>doubt</i> (shubha qilmoq)	<i>fear</i> (qo’rqmoq)
<i>hope</i> (umid qilmoq)	<i>like</i> (yoqtirmoq)	<i>want</i> (xohlamoq)

Masalan: *I very much agree with the decision yoki I agree very much... (I much agree...)*

➤ Qoida 12:

Majhul nisbat tarkibidagi o’tgan zamon sifatdoshi - *Past Participle* dan oldin “much” yoki “very much” ravishlari ishlatilishi mumkin.

Masalan: *A new method to teach English to young learners is (very) much needed.*

➤ Qoida 13:

Sifat vazifasida kelgan o’tgan zamon sifatdoshi - *Past Participle* oldidan “very”, “very much” ravishlari ishlatilishi mumkin. Lekin “much” yolg’iz o’zi ishlatilmaydi.

Masalan: *She was very/very much interested in the news. (She was much interested...)*

➤ Qoida 14:

Sifat vazifasida kelgan hozirgi zamon sifatdoshi - *Present Participle* dan oldin “much” yoki “very much” ravishlari ishlatilmaydi. Lekin “very” ishlatilishi mumkin.

Masalan: *The hotel was (very) welcoming. (The hotel was (very) much welcoming.)*

➤ Qoida 15:

Quyidagi 5 ta ravishdan keyin doim fe’lga qarab sifat yoki ravishning oddiy darajasi ishlatiladi:

<i>so</i>	+ Positive degree of the adjective + Positive degree of the adverb
<i>very</i>	
<i>too</i>	
<i>quite</i>	
<i>rather</i>	

➤ Izoh:

1. “So” -juda (hayrat)

Masalan: *She is so beautiful (sifat). She answered so cleverly (ravish).*

2. “Very” -juda (fakt)

Masalan: *The weather is very cold (sifat). She speaks very quickly (ravish).*

3. “Too” -juda (keragidan ortiq)

Masalan: *The weather is too cold to walk outside (sifat). He speaks too quickly for me to understand (ravish).*

➤ Qoida 16:

“Yetarli” ma’nosini anglatuvchi “enough” ravishining gapda joylashuv o’rni ikki xil bo’ladi:

1.

<i>adjective</i>	+ enough	+ (for sb/sth)	+ (to infinitive)
<i>adverb</i>			

Masalan: *She is beautiful enough. She is not old enough to go to school. She speaks slowly enough to understand. I experienced enough to do this work. Bob explained the topic clearly enough for us to comprehend.*

2.

<i>enough</i>	+ uncountable/plural noun	+ (for sb/sth)	+ (to infinitive)
---------------	---------------------------	----------------	-------------------

Masalan: *There are enough chairs in the room. I have enough money. We didn't have enough time to visit the museum. There is enough money for both of us to go on holiday. She is clever enough for the test.*

A: *John, why are you sleeping? Get up, it's time to go to English class.*

J: *I have a lot of time.*

A: *But I haven't got enough.*

3.

<i>a/an</i>	+ adjective	+ enough	+ singular noun
-------------	-------------	----------	-----------------

Masalan: *They bought a big enough bucket. She is an intelligent enough teacher. It is a comfortable enough room.*

➤ Qoida 17:

“Hardly”, “scarcely”, “barely” ravishlari “arang”, “zo‘rg‘a” ma‘nosida ishlatiladi.

Masalan: *I could hardly/scarcely/barely understand him.*

➤ Qoida 18:

“Hardly”, “scarcely” va “barely” ravishlari ko‘pincha “any”, “anybody”, “anything”, “anywhere”, “ever” so‘zlari bilan birga keladi. Bunda ular o‘zbek tiliga bo‘lishsiz shaklda “...yo‘q desa ham bo‘ladi”, “deyarli...emas” deb tarjima qilinadi.

Masalan: *There were hardly/scarcely any people in the street. There was hardly/scarcely any water in the well.*

➤ Qoida 19:

“Hardly”, “scarcely” va “barely” ravishlari “can”, “could” modal fe‘llari bilan kelganda ish-harakat bajarilishining deyarli iloji yo‘qligini bildiradi.

Masalan: *Your writing is terrible. I can hardly read it. My leg was hurting. I could hardly walk.*

➤ Qoida 20:

“Hardly ever” birikmasi “deyarli hech qachon” ma‘nosini beradi.

Masalan: *I am nearly always at home in the evenings. I hardly ever go out.*

➤ Qoida 21:

“Hardly” ravishi “mutlaqo...emas” ma‘nosini ham beradi.

Masalan: *It's hardly surprising that you are tired as you haven't slept for three days. The case is serious, but it's hardly a crisis.*

➤ Qoida 22:

“Nearly” va “almost” ravishlari darak gaplarda ishlatilib, fe‘lga aloqador bo‘lib kelganda o‘zbek tiliga “qariyb”, “deyarli” yoki “sal qoldi” deb ham tarjima qilinadi. “Nearly” va “almost” ravishlari inkor gaplarda ishlatilmaydi.

Masalan: *I have nearly/almost finished my work. I nearly/almost made a mistake. I nearly/almost fell.*

ADVERBS OF MANNER (HARAKAT TARZI RAVISHLARI)

➤ Qoida 1:

Harakat tarzi ravishlari harakatning qay tarzda bajarilganligini ko‘rsatib, ular asosan quyidagi shaklda yasaladi:

<i>adjective</i>	+ <i>ly</i>
------------------	-------------

Masalan: *beautiful-beautifully, serious-seriously, wide-widely, angry-angrily, lucky-luckily, etc.*

➤ Qoida 2:

Barcha fe‘llardan keyin asosan harakat tarzi ravishlari ishlatiladi.

Masalan: *Time goes slowly. Flowers grew quickly. The man picked the child carefully. He spoke fluently.*

➤ Qoida 3:

“Too”, “also”, “either”, “else”, “only”, “even” so‘zlari ham ravishlar hisoblanadi. “Ham” ma‘nosida “too” va “also” bo‘lishli va so‘roq gaplarda ishlatiladi, ammo “also” ga qaraganda “too” og‘zaki nutqda ko‘proq qo‘llanadi. “Either” xuddi shu ma‘noda faqat inkor gaplarda ishlatiladi.

Masalan: *I shall be there too. Have you been there too? They also agreed with me. I have not seen him either.*

➤ Qoida 4:

“Yana”, “boshqa” ma‘nosida “else” so‘roq olmoshlari va ravishlari bilan hamda “some”, “any”, “no” ishtirokida yasalgan gumon olmoshlari va ravishlari bilan keladi.

Masalan: *What else must I do? Where else did you go? Ask somebody else about it. Are you going anywhere else after that?*

➤ Qoida 5:

Qaratqich kelishigi qo‘shimchasi [’s] “someone else”, “anyone else”, “no one else” birikmalarida “else” dan keyin keladi.

Masalan: *Don't use someone else's ideas. They are going to accept no one else's work on the project.*